

## OGAHIYNING BA’ZI TARJIMA ASARLARI VA ULARGA QISQA SHARHLAR

**O‘zbekov Xurshid Ilhom o‘g‘li**

*Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti*

*Sharq sivilizatsiyasi va tarix fakulteti 2-kurs talabasi*

*xurshidozbekov03@gmail.com*

*+998 88 705 05 42*

*Ilmiy rahbar*

**I.B.Xudoynazarov**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ogahiyning “Ravzat us-safo” (Mirxon), “Guliston” (Sa’diy Sheroziy), “Yusuf va Zulayho” (Jomiy), “Qobusnoma” “Shoh va gado” (Hiloliy) va “Haft paykar” (Nizomiy) tarjima asarlari sharhi keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** “Haft paykar”, “Guliston”, Bahrom, “Yusuf va Zulayho” Najmuddin Komilov, Arminiy Vamberi.

Ma’lumki, adabiyotimiz tarixida Ogahiy buyuk talant egasi bo‘lgan shoir sifatida tanilib qolmay balki, mohir tarjimon sifatida ham shuhrat qozondi. Ogahiy ijodining ilk yillarda fors tilidan tarixiy asarlarni tarjima qilishga kirishdi. Shundan so‘ng mahorati oshib borgan sari badiiy asarlarni nazmdan nazmga o‘gira boshlagan. U yigirmaga yaqin asarlarni tarjima qilib, tarjimashunoslik maktabini yaratdi. Ular ichida “Ravzat us-safo”, “Tazkirai Muqimxoniy”, “Tabaqoti Akbarshohiy”, kabi tarixiy-ilmiy, “Axloqi Muhsiniy”, “Nasihatnomai Kayqovus” kabi axloqiy-didaktik asarlar barobarida Sharq adabiyotining ulug‘ klassikalaridan Nizomiy, Sa’diy, Amir Xisrav Dehlaviy, Jomiy va boshqalar yaratgan o‘lmas badiiy asarlar ham bor. Shulardan biri qardosh tojik xalqining ulug‘ shoiri Abdurahmon Jomiy tomonidan yaratilgan “Yusuf va Zulayxo” dostonidir.

“Yusuf va Zulayxo” Sharq adabiyotida Iskandar, Bahrom, Farhod va Shirin, Vomiq va Uzro, Layli va Majnun kabi keng tarqalgan, qayta-qayta qalamga olingan mashhur sujetlardan biridir. Go‘zal Yusuf to‘g‘risidagi rivoyat birinchi martaba “Tavrotda”da uchraydi . Bu sujed undan “Qur’on”ga ko‘chgan. Ushbu rivoyatning Qur’ondagi talqini birmuncha ixcham va badiiy shakllangan. Qur’onda “ahsan ul-qissas” (qissalarning eng go‘zali) deya ta’riflanadi. O‘zbek mumtoz adabiyotida Yusuf alayhissalomning hayotlari haqida hikoya qiluvchi badiiy-tarixiy asarlar Qur’onda ta’sirlangan holda yozilgan.

Ogahiy o‘z tarjimasida Jomiyning “Yusuf va Zulayxo” dostonining g‘oyaviy asoslarini to‘liq saqlab qoldi, badiiy xususiyatlarini ajoyib talant va mahorat bilan o‘zbek tilida aks etdirdi. Garchi Ogahiyning tarjima uslubi va metodi hozirgi zamon tarjima usulidan ma’lum darajada farq qilsa ham, lekin asarning asosiy g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari o‘zgarmaydi, asar qimmatiga putur yetmaydi. Aksincha, Ogahiy o‘zining zo‘r badiiy iste’dodi orqasida aslidan hech bir jihatdan qolishmaydigan o‘zbekcha variantlarini yaratishga muvaffaq bo‘ladi. Ogahiy tarjimada qo‘llagan bu usulini, ya’ni orginaliga maksimum yaqinlashish usulini “Shoh va Gado” dostonidagi “Bu qissa tarjimasining boisi” sarlavhasi bobida

quyidagi misralarda ta'kidlab, go‘yo o‘zini Hiloliyning xat bituvchi qo‘li yoki so‘zlaguvchi tili deb hisoblaydi:

Barcha so‘zkim dedim, oning so‘zidir,  
Men demaykim, degon oning o‘zidir.  
Go‘yo men oning tilidurmen,  
Tutg‘oli xomani (ng) elidurmen.

“Shoh va Gado” tarjimasi to‘g‘risida aytilgan bu so‘zlar hamma dostonlarga ham aloqador bo‘lib, Ogahiy badiiy tarjimalarining ijodiy usulidan darak beradi. Bu usulning eng muhim belgisi asliga hurmat, sadoqat bilan qarash va uning asosiy mazmunini buzmay saqlashga intilishdan iboratdir.

Ogahiy asarlar to‘plamining mazkur uchinchi jildiga kirgan ikkinchi doston “Shoh va Gado” tojik xalqining talantli shoiri Badriddin Hiloliy qalamiga mansubdir. Hiloliy, taxminan, XV asrning 70-yillarida Astrobodda tug‘ilib, 1940 yillar atrofida Hirotg‘a keldi va Alisher Navoiy, Jomiy boshchilik qilgan adabiy hayotda ularning kichik zamondoshi sifatida faol ishtirok etdi va o‘chmas iz qoldirdi. Alisher Navoiy bu shaxsnинг ismi va taxallusiga “hilol” (yarim oy, yangi oy) emas balki arabcha “to‘lin oy” deb, yuqori baho bergen edi.

“Shoh va Gado” dostonining temasi va g‘oyaviy yo‘nalishi haqida shuni aytish kerakki, Shoh va Gado motivi, ularning o‘rtasidagi turli shakldagi mojarolar Sharq adabiyotida mashhurdir. “Shoh va Gado” sujeti Hiloliydan avval ham ishlangan. Lekin bu sujetni zo‘r mahorat bilan badiiy qolipga solgan va uni unutilmas adabiy yodgorlik sifatida avlodlarga qoldirgan mohir san’atkor Badriddin Hiloliy bo‘ldi. Hiloliy o‘z dostonida XV asr jamiyatni uchun xarekterli bo‘lgan ikki katta ideani ilgari suradi. Ularning birinchisiadolatli shoh, inson va muruvvatli hukmdor bo‘lsa, ikkinchisi inson erki va huquqi, inson kechinmalarining hur va ozod bo‘lishi haqidagi gumanistik tushunchadir. Hiloliy dostonining asosini tashkil qilgan bu ikki ilg‘or idea Ogahiy kayfiyati va dunyoqarashiga ham yaqin va oshno edi. “Shoh va Gado” dostoni yuksak ijtimoiy ideallarni tarannum qilgan, insonlar o‘rtasida samimiylilik, do‘stlik, pok muhabbat kabi olajanob tuyg‘ularning barqaror bo‘lishini targ‘ib qilgan o‘tmishning yuksak badiiy durdonalaridan biridir.

Ogahiyning keying tarjima asari Sa’diy Sheraziyning “Guliston” asaridir. Sa’diy Sheraziyning (1210-1292) dunyoga mashhur bu asari tarjimasi shahzoda Muhammad Rahim II buyurtmasi bilan tarjima qilingan.

“Guliston” asari sakkiz bobdan iborat bo‘lib, uning tuzilishi quyidagicha: debocha; birinchi bob-podsholar siyrati zikrida; ikkinchi bob-darveshlar axloqi zikrida; uchinchi bob-qanoat fazilati zikrida; to‘rtinchi bob-sukut saqlashning foydalari zikrida; beshinchi bob-ishq va yoshlik zikrida; oltinchi bob-qarilik va zaiflik zikrida; yettinchi bob-tarbiya ta’siri zikrida; sakkizinchi bob-suhabat odobi zikrida. Ogahiy aynan shu asari tarjimasi haqida batafsil ma’lumot beradi va shoirning mahoratini ulkan baholaydi.

Mirxon yaratgan va Ogahiy tomonidan tarjima qilingan mashxur “Ravzat as-safo” asari odamzodning yaratilishidan to temuriylar davrigacha bo‘lgan Movarounnahr va Xurosonning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy tarixi bayoni aks etgan va Movarounnahr va Xurosonning geografik joy nomlari, daryolari, tog‘lari, cho‘llari haqida ma’lumot berilgan. Bu asar Alisher Navoiyning maslahati bilan yoziladi. Navoiy Mirxonddan tarixni jamlagan katta asar yozib berishini iltimos qilgani ma’lum. Navoiy “Majolis un-nafois” asarini yozgan

vaqtida Mirxon “Ravzat as-safo”ning yarmini tugatgani haqida aytib o’tgan. “Majolis un-nafois” da Alisher Navoiy katta ishonch bilan Mirxon o’z asarini tugatsa tarixiy asarlar orasida bundan to‘liqroq va mukammalroq asar bo‘lmasligini aytib o’tgan.

Haft paykar (“Yetti go‘zal”) – buyuk ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy “Xamsa”sining to‘rtinchı dostoni bo‘lib, dostonda mardlik, rostgo‘ylik, muhabbat, xalq taqdiri, umuman shaxs va jamiyat masalalari Bahrom Go‘r timsolida o‘z aksini topadi. 1865-yilda nasrda tarjima qilingan . Kaykovusning “Qobusnama” (1082 yilda yozilgan) asari sharq xalqlari orasida ma’lum va mashhur asar bo‘lib, bu asarni Ogahiy 1860 yilda o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Asarda otani o‘g‘ilga o‘gitlari, xalq maqollari va hikoyatlari, asosan tarixiy voqealar va tarixiy shaxslar to‘g‘risidagi rivoyatlarga aniq yondashilgan. “Qobusnama” asosini Qur’oni karim suralari, Muhammad (SAV)ning faoliyati va ko‘rsatmalarini ifodalovchi hadislar, hikmatli hikoyatlar tashkil etadi. Asar 44 bobdan iborat. Dastlabki 4 bobi Haqni tanimoq, Payg‘ambarlarning xilqati (yaratilishi), Alloh ne’matiga shukur qilmoq haqida bo‘lib, qolgan 40 bobi ota-onani hurmatlash, ilmiy bilimlarni, san’atni egallash, harb, savdo, dehqonchilik ishlari va hunarni o‘rganish, odob-axloq qoidalariga rioya etish, farzand tarbiyasi, saxovat va juvonmardlik kabi ko‘plab masalalarni o‘z ichiga oladi. Asarda hunar va ilm jamiyat taraqqiyotining asosiy omillari deb qaraladi. Odamlar 3 guruhga bo‘linib, ularning jamiyatda tutgan o‘rni belgilanadi; odamlarning fazilatlari ham 3 guruhga bo‘linadi: aqlilik, haqgo‘ylik, juvonmardlik.

Muhammadrizo Ogahiyning tarjimon ekani haqidagi ilk ma’lumot vengriyalik olim Arminiy Vamberi (1832-1913) tadqiqotida keltirilgan. Arminiy Vamberi Xorazmda she’riyatga bo‘lgan katta qiziqish to‘g‘risida gapira turib, bunday yozadi: “Xivada men ikki aka-uka bilan tanishdim. Biri Munis bo‘lib, u ajoyib she’rlar yozgan, men ularning ayrimlarini, keyinchalik nashr qildirmoqchiman. Ikkinchisi Mirob. U ulkan sabr bilan Mirxonning katta tarixiy asarini o‘g‘li uchun, garchi o‘g‘lining o‘zi ham fors tilidan xabardor bo‘lsa-da, o‘zbek turkiy lahjasiga o‘girmoqda. Bu ish 20 yil davom etgan, lekin u buni biror kimsa oldida e’tirof etishdan uyalardi, zero, diniy ilmlardan boshqasi bilan shug‘ullanish yuzakichilik hisoblanadi”.

Ushbu iqtibosdan ma’lum bo‘ladiki, Ogahiy Mirxonning “Ravzat us-safo” asarini ko‘p yillar davomida tarjima qilgan va boshqa tarjimonlarga ham bosh-qosh bo‘lgan. Ogahiy fors tilidan o‘n sakkizta va usmoniy turkchasidan bitta asar tarjima qilgan. Ogahiy tarjima qilgan barcha asarlar o‘z davrining mashhur asarlari hisoblanib, asarlari fors tilidan ona tilimizga katta mahorat bilan tarjima qilgan. Ogahiy tarjima qilgan asarlarning barchasi axloqiy yoki falsafiy-axloqiy xarakterdagи asarlardir. Ijodkorning keng ko‘lamda olib borgan tarjimonlik mahorati tafsinga loyiq. Adabiyotimiz tarixida hech bir adib tarjima sohasida bunchalik ko‘p va ko‘b asarlar tarjima qilmagan. U o‘z tarjimalari orqali adabiyotimiz xazinasini yanada boyitdi desam mubolag‘a bolmaydi. Muhammadrizo Ogahiy haqli ravishda eng semahsul va serqirra qalamkashlar qatorida e’tirof etiladi. Nima uchun tarjima sohasida ishlaganini Ogahiy o‘zi: “Turkgo‘y elim bahramand bo‘lsin deb ixlos qalamini avroqi uzra chekdim”, deb izohlagan . Bu so‘zlarning asosiy sabablaridan biri, u tarjima qilgan asarlarning ko‘plari o‘zbek tiliga o‘girilgan tarjimalardan edi.

“O‘zbekiston adabiyot tarixi” kitobining muallifi Rahmonqul Orzibekov, o‘zining ushbu kitobida Ogahiyni nafaqat tarjimon, balki tarixchi sifatida tanishtirib, nasriy

yo‘nalishdagi chiston, tuyuq, qit’ा, ruboiy va she’rlariga birma-bir to‘xtalib o‘tgan. Uning so‘zlariga ko‘ra, Ogahiy tarjima asarlar tanlashda “...didaktik yo‘nalishga, komil insonni tarbiyalashdagi ahamiyatiga e’tibor berdi”, deb ta’kidlaydi. Yuqorida sanab o‘tilgan tadqiqotchilar orasida to‘laqonli e’tiborni Ogahiyning tarjima asarlariga qaratgan inson, professor Najmuddin Komilov bo‘lib, u juda ko‘p asarlarida tarjimoning asarlari va uning mahorati haqida to‘xtalib o‘tgan. Najmuddin Komilov tadqiqotlari asosida, Ogahiyning tarjimalarini asl nusxalari, boshqa tarjimalari bilan solishtirib, hazrat iqtidoriga, qoyil qolib, nihoyatda yuksak baho bergan. Shu bilan birga Najmuddin Komilov Ogahiyning tarjima ishlarini, ipidan ignasigacha o‘rgangan deb hisoblasak bo‘ladi. Sababi, professor Najmuddin Komilov nafaqat nomzodlik, balki “Muhammadrizo Ogahiyning tarjimonlik mahorati” nomli kandidatlik dissertatsiyasida ham bu atoqli adibning san’atkorligi, tarjimadagi uslub va usullarini keng va barafsil o‘rganishga harakat qilgan. Bundan tashqari, tarjimonshunoslik sohasida yozgan deyarli har bir maqolasida Ogahiyning iste’dodiga to‘xtalib o‘tgan. Bundan tashqari Nusratullo Jumaxo‘ja va Abdurashid Abdug‘urov kabi olimlarimiz Ogahiyning shoir, moharrir, tarjimon sifatidagi faoliyatini chuqurroq o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy asarlar e’lon qildilar.

Xulosa qilib shuni aytishimiz joizki, Muhammadrizo Ogahiy bizga shunchalik ko‘p va ko‘b tarjimalari va o‘z asarlarini qoldirdiki, unga qancha maqtovlar aytsak shuncha ozdir. Uning hayot yo‘li bizga o‘rnak bo‘lmog‘i lozim. Ogahiy tarjimonshunoslik maktabini yaratdi. Bu maktab davomchilari bo‘lish bizga ham qarz ham farzdir. Yuksak iqtidor egasi Ogahiyning tarjimonlik mahorati yoyinki yozgan asarlarini amalga oshirish har kimning qo‘lidan kelavermaydi. U o‘z davrining bilim egalari hisoblangan Jomiyuning, Sa’diyning, Nizomiyning asarlarini tarjima qildi. Bu yuksak bilim va mahorat talab etadi. Bu ulkan zehn egasining asarlariga hozirgi olimlar tasonnolar aytmoqda. Bunday adabiyotimiz namoyondalarini chuqur o‘rganish, ularni asarlarini tadqiq qilish orqali ularning oldidagi qarzimizni qisman uzishimiz mumkin. Ayniqsa biz yosh sharqshunoslар uchun Ogahiy ijodini mukammal o‘rganish, u kabi ko‘plab tillarni bilish juda muhim. Biz bunday insonlarga munosib izdosh bo‘lishimiz shart va lozimdir. Muallifning asarlari va tarjimalari yana shunisi bilan qadrlichi, u shunchaki har qanday asarni tarjima qilmadi balki, asarning mazmum mohiyati insonni yurtni sevish, qadrlash, e’zozlash, ulug‘lashga da’vat etuvchi tarbiyaviy asarlarni tarjima qildi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Muhammadrizo Ogahiy Asarlar.3-jild.-T.:1974;
2. Muhammadrizo Ogahiy Asarlar.6-jild.-T.:1977;
3. Muhammadrizo Ogahiy hikmatlar.T.:2021;
4. <http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/519>